

VII. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash haqida" gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)




Yuridik shaxs:


Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka yega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga yega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi,
(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish surati, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (113,2 foiz), savdo (118,5 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (105,7 foiz), sanoat (108,7 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (116,8 foiz) axborot va aloqa (98,3 foiz), qurilish (110,1 foiz), tashish va saqlash (107,9 foiz) va boshqa turlar (102,8 foiz) sohalariga to'g'ri keladi.




■ 2021- yil ■ 2022- yil
Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- aprel holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra 47 415 tani tashkil yetib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4 247 taga yoki 109,8 %ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 31,5 % savdo, 21,2 % sanoat, 7,8 % qurilish, 5,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,7 % qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 3,6 % tashish va saqlash, 2,4 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 21,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

2022- yil 1-aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni va o'sish sur'ati, %
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022-yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

23 569
Mas'uliyati cheklangan jamiyati



5 850
Oilaviy korxonalar



231

Unitar korxonalar



11 213

Hususiy korxonalar



53

Aksiyadorlik jamiyati



406

Boshqa korxonalar



2022- yil 1- aprel holatiga 41 322 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar soni, shundan xususiy korxonalar – 11 213 ta, oilaviy korxonalar – 5 850 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyat – 23 569 ta, aksiyadorlik jamiyati – 53 ta, unitar korxonalar – 231 ta va boshqa turdagi korxonalar – 406 tani tashkil etadi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 24,6 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,8 mingtaga yoki 118,0 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 23,5 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 mingtaga yoki 117,3 %ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022-yilning yanvar-mart oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1295 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan

yilning shu davriga nisbatan 121 taga yoki 91,5 %ga kamayganni ko'rish mumkin.



Yangi tashkil yetilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(yanvar-mart oylarida)




2022- yil yanvar-mart oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg‘ona shahar (15,9 %), Qo‘qon shahar (9,6 %), Marg‘ilon shahar (6,5 %), Oltiariq tumani (6,1 %), Toshloq tumani (5,6 %), Dang‘ara tumani (4,8 %), O‘zbekiston tumani (4,6 %), Beshariq tumani (4,5 %), Rishton tumani (4,5 %), Quva tumani (4,4 %), Farg‘ona tumani (4,4 %), Uchko‘prik tumani (4,3 %), Buvayda tumani (4,1 %), Qo‘sh tepa tumani (3,9 %), Bag‘dod tumani (3,8 %), Furqat tumani (3,6 %), Quvasoy shahar (3,4 %), So‘x tumani (3,2 %), Yozyovon tumani (2,7 %), hissalariga to‘g‘ri keladi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, birlik)



Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, birlikda)




Hududlar bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2022- yil 1- aprel holatiga ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 555 tani tashkil etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 76 taga yoki 115,9 %ga o'sgan.




Xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni



Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi

(1- aprel xolatiga ko'ra, yillar kesimida, birlikda)

	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Jami	212	317	429	465	547
<i>Shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4	18	29	24	31
Sanoat	151	197	246	260	286
Qurilish	5	8	11	20	27
Savdo	19	46	74	88	117
Tashish va saqlash	7	9	12	13	16
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7	13	15	14	14
Axborot va aloqa	3	4	4	4	3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	7	10	9	10
Boshqa turlar	10	15	28	33	43

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimida soni


(2022- yil 1- aprel xolatiga, birlikda)

	<i>Ro'yxatga olinganlar</i>	<i>2022- yil yanvar-mart</i>	
		<i>yangi tashkil etilgan</i>	<i>tugatilgan</i>
Viloyat bo'yicha	555	11	2
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	171	2	2
Qo'qon	74	3	
Quvasoy	35		
Marg'ilon	28	1	
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	17		
Qo'shtepa	25		
Bog'dod	9		
Buvayda	16		
Beshariq	11	1	
Quva	12		
Uchko'prik	23		
Rishton	23		
So'x	13		
Toshloq	8		
O'zbekiston	19	1	
Farg'ona	28	3	
Dang'ara	30		
Furqat	17		
Yozyovon	8		


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022-yilning 1- aprel xolatiga 6 277 tani tashkil etib, ulardan 5 850 tasi yoki 93,2 % faoliyat yuritmoqda.

Oilaviy korxonalar yillar kesimidagi soni (birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, (2022- yil 1- aprel xolatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni
(birlikda)

	<i>Ro'yxatga olinganlar</i>	<i>2022- yil yanvar-mart</i>	
		<i>yangi tashkil etilgan</i>	<i>tugatilgan</i>
Viloyat bo'yicha	6 277	276	56
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	647	23	1
Qo'qon	424	17	3
Quvasoy	278	12	3
Marg'ilon	460	8	5
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	536	31	9
Qo'shtepa	178	9	2
Bog'dod	346	9	3
Buvayda	327	7	
Beshariq	287	8	1
Quva	236	3	2
Uchko'prik	320	4	5
Rishton	595	31	7
So'x	107	12	1
Toshloq	233	7	
O'zbekiston	392	26	2
Farg'ona	231	14	4
Dang'ara	319	26	2
Furqat	282	20	1
Yozyovon	79	9	5